

## AGATHA CHRISTIE ASARLARI TARJIMASIDA DETEKTIV USLUBNING SAQLANISHI

**Abdullayeva Kumush**

*Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti talabasi  
[kkumush915@gmail.com](mailto:kkumush915@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Agatha Christiening detektiv asarlari tarjimasi tahlil qilinadi. Ishda yozuvchining uslubi, detektiv sezuvchanlik qobiliyati, syujet qurilishi, mantiqiy izchillik va psixologik vositalar tarjimada qanday qilib saqlab qolish masalalari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Alifbo bo‘yicha qotillik”, “Kutubxonadagi murda ” kabi asarlar misolida tarjimonning uslubiy yondashuvi tahlil etiladi. Tadqiqotning maqsadi — detektiv janrga xos tahlil, yashirin so‘zlar va elementlar tarjimasi , sir va kutilmagan yakun elementlarining tarjimada to‘liq saqlanish darajasini aniqlashdir.

**Kalit so‘zlar;** tarjima, detektiv janr, uslub, badiiy tarjima, sirlik, til o‘ziga xosligi, syujet, madaniy kontekst, obraz yaratish.

**Abstract:** This article analyzes the translation of detective works by the English writer Agatha Christie. The study explores how the author’s style, sense of detective intuition, plot construction, logical consistency, and psychological devices are preserved in translation. In addition, the translator’s stylistic approach is examined through the examples of works translated into Uzbek, such as “The A.B.C. Murders” and “The Body in the Library.”

The aim of the research is to determine the degree to which elements typical of the detective genre — such as analytical reasoning, hidden clues and expressions, mystery, and unexpected endings — are fully preserved in translation.

**Keywords:** translation, detective genre, style, literary translation, mystery, linguistic uniqueness, plot, cultural context, character development.

Agatha Christie asarlarining tarjimadagi o‘ziga xosliklari, psixologik tahlil, suspensiya [Kutilmagan holat yaratish] va soxta yo‘nalishlar bilan ajralib turadi .Hamda uslubiy vositalar, mantiqiy izchillik va tarjimon yondashuvi haqida batafsil tahlil beriladi. Asosiy e’tibor detektiv uslubni o‘zbek tiliga moslashtirish, muallif uslubining so‘z tanlovi va ifoda vositalarini saqlab qolishga qaratiladi. U o‘quvchini doimo gumonda ushlab turadi, shu

orqali voqeaga qiziqish uyg‘otadi. Muallif o‘zining har bir asarida o‘quvchini mantiqiy fikrlashga hamda detektiv olamga sayohat qilishga majburlaydi.

Shuningdek uning asarlarida dialoglar, savol-javoblar va mantiqiy tahlil asosiy o‘rinda turadi. Bundan tashqari asarlarda jinoyatchilar haqidagi muloqotlar turli xil o‘zoga xos yashirin so‘zlar va belgilar bilan ifodalanilgan.

Bu ham yozuvchining yuqori iqtidor egasi ekanligining yaqqol belgisidir. Yozuvchi asar mohiyatini juda yaxshi o‘quvchiga yoritib bergan. Endigi asosiy nuqta bu tarjimon mahorati. Asliyat tilidagi matn tarjima tiliga o‘tganda ham o‘z mohiyatini yo‘qotmaslik kerak. Agar tarjimon ushbu holatlarni aks ettira olmasa, asar o‘zining ta‘sirini yo‘qotadi. Masalan, “suspense” so‘zini oddiy “Hayajon” deb tarjima qilish yetarli bo‘lmaydi. U o‘quvchida kutilmaganlik hissinu uyg‘otuvchi til vositasi orqali berilishi lozim. Masalan: tarjimon kontekstga qarab ushbu so‘zni quyidagicha berishi mumkin: eti junbushga keldi, hayondan yurak urushi quloqni larzaga solardi va ko‘pgina iboralar hamda maqollar bilan bersa bo‘ladi. Biroq, bu asarlarni boshqa tillarga, ayniqsa o‘zbek tiliga tarjima qilish oson ish emas. Tarjima jarayoni nafaqat so‘zlarni boshqa tilda ifodalashni, balki muallifning uslubini, asardagi ruhiy muhitni va detektiv janrning o‘ziga xos xususiyatlarini ham to‘liq saqlab qolishni talab etadi.

| Ingilizcha termin | Tavsiya etilgan tarjima       | Funksiyasi                     |
|-------------------|-------------------------------|--------------------------------|
| Red herring       | Yolg‘on iz / Soxta detal      | O‘quvchini chalg‘itish         |
| Suspense          | Kutilmaganlik hissi / Hayajon | Qiziqishni ushlab turish       |
| Hunch             | Ichki sezgi / Tuyg‘u          | Shubha yoki taxminni bildirish |

Agatha Christiening asarlarida detektivlik mohiyati — sirlik, mantiqiy izchilik va hayajon uyg‘otish — tarjimada to‘liq aks etmasa, asarning badiiy kuchi sezilarli darajada kamayadi. Shu sababli ushbu maqolada Christiening asarlarini tarjima qilish jarayonida detektiv uslubni saqlash masalasi lingvistik, stilistik hamda madaniy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Agatha Christie o‘z ijodida soddalik va murakkablikni mahorat bilan uyg‘unlashtira olgan yozuvchidir. Uning “ABC murder”, “The body in the library”, kabi mashhur asarlarida voqealar yuzaki qaraganda oddiy ko‘rinsa-da, aslida murakkab mantiqiy tizimga asoslangan. Har bir detal, har bir so‘z va harakat muhim o‘rin tutib, ularning barchasi oxirgi yechim sari olib boruvchi hal qiluvchi bo‘g‘in sifatida xizmat qiladi. Christiening uslubiga xos eng muhim jihatlardan biri — sirlikni bosqichma-bosqich ochib borish texnikasidir. Yozuvchi o‘quvchini chalg‘itish uchun ingliz tilida “red herring”

deb ataluvchi soxta izlar uslubidan keng foydalanadi. Bu uslubni tarjimada to‘liq aks ettirish oson emas, chunki unda ingliz madaniyatiga xos mantiqiy va semantik kodlar mavjud.

Shu sababli tarjimon so‘zma-so‘z tarjimadan voz kechib, mazmuniy yondashuvni tanlashi zarur. Masalan, “red herring” iborasini bevosita tarjima qilish o‘rniga, “yolg‘on iz” yoki “atayin chalg‘ituvchi detal” tarzida ifodalash o‘zbek o‘quvchisi uchun yanada tushunarli va tabiiy bo‘ladi.

Bu holatda tarjimonning vazifasi — muallif yaratgan sirli va hayajonli muhitni o‘zbek o‘quvchisining tafakkuriga mos tarzda qayta jonlantirishdir. O‘zbek tiliga tarjima jarayonida tarjimon odatda ikki asosiy muammoga duch keladi:

1. Ingliz tilining sintaktik tuzilmalari o‘zbek tilining tabiiy ohangiga mos kelmasligi;
2. Ayrim so‘z yoki iboralarning to‘liq ekvivalentga ega emasligi.

Masalan, ingliz tilidagi “I have a hunch” iborasini so‘zma-so‘z “menda ichki sezgi bor” deb tarjima qilish tabiiy eshitilmaydi. Aksincha, “ichimdan shunaqa deb sezayapman” yoki “shunaqa tuyg‘u bor mend” kabi tabiiy shakllar orqali tarjimon nafaqat ma‘noni, balki hissiy ohangni ham saqlab qoladi. Tarjimonning eng muhim vazifasi — Agatha Christiening muallif ovozini yo‘qotmaslikdir. Uning tili sodda, ammo ma‘nodor; betaraf, ammo hissiyotga boy. Shu ohangni o‘zbek tilida ham to‘g‘ri aks ettirish uchun so‘z tanlash, gap tuzilishi va intonatsiyaga alohida e‘tibor berish zarur. Shu tariqa, tarjimon asarning ruhini, uslubiy ohangini va detektivlik kayfiyatini o‘quvchiga tabiiy tarzda yetkazishga erishadi. Agatha Christiening asarlarida voqealar faqatgina jinoyat voqealari atrofida emas, balki ijtimoiy hayot, odob-axloq me‘yorlari va inson ruhiyatining murakkab qatlamlari bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Shu bois, tarjimon uchun faqat tildagi ma‘nolarni emas, balki madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ham to‘g‘ri his etish nihoyatda muhimdir. Ingliz jamiyatiga xos kundalik muloqot, axloqiy qadriyatlar yoki yumor o‘zbek o‘quvchisi uchun notanish bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tarjimon ularni milliy tafakkurga mos shaklda, ammo asl mazmun va uslubni buzmasdan yetkazishga intilishi kerak. Christie ijodining ajralmas qismi — psixologik tahlildir. Yozuvchi o‘z qahramonlarini ruhiy kechinmalar, ichki ziddiyatlar, gumon va tahlil orqali yoritadi. Shu sababli tarjimon bu holatlarni tarjimada to‘laonli aks ettira olishi uchun qahramonlarning ichki monologi va ruhiy holatini chuqur his qilishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, tarjimonning badiiy tafakkuri, psixologik sezgirligi va empatiya darajasiga bevosita bog‘liq.

Agatha Christiening detektiv asarlarini tarjima qiluvchi shaxs faqat til vositachisi emas, balki ijodiy hamkor hisoblanadi. U muallifning fikrini, uslubini va badiiy olamini boshqa tilda qayta yaratadi. Shu jarayonda tarjimon quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratishi kerak:

- asardagi sirlilik muhitini saqlab qolish;

- mantiqiy izchillikni buzmaslik;
- o‘zbek o‘quvchisining madaniy va psixologik tafakkurini inobatga olish.

Bunday yondashuv Christiening asarlarini o‘zbek o‘quvchisi uchun tabiiy, ammo asliga sodiq shaklda yetkazish imkonini beradi. Tarjimonning uslubiy sezgirligi, badiiy didi va tafakkuri detektiv janrning o‘ziga xos jozibasini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Agatha Christie asarlarini tarjima qilishda detektiv uslubni saqlash — bu nafaqat tilshunoslik, balki badiiy ijod jarayonidir.

Tarjimon har bir so‘z, ibora va dialogni o‘girar ekan, ularning ortidagi ma’no, sirlilik va psixologik chuqurlikni ham o‘quvchiga yetkazishi lozim. Christie asarlarining o‘ziga xos jozibasi — mantiq, hissiyot va sirlilikning uyg‘unligida. Tarjimon ana shu uyg‘unlikni aslda qanday bo‘lsa, shunday tarzda o‘zbek tilida ham ifoda etgan taqdirdagina asarning haqiqiy badiiy kuchi saqlanadi. Shu sababli detektiv uslubni to‘liq saqlash uchun tarjimon janr qonuniyatlarini, muallif ruhiyatini va madaniy tafovutlarni chuqur bilishi zarur. Natijada, bunday yondashuv Agatha Christie asarlarini o‘zbek adabiy makoniga moslashtirish, o‘quvchiga yangi estetik zavq ulashish va jahon adabiy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Agatha Christie ijodining o‘zbek tiliga tarjimasi detektiv janrga xos murakkabliklarni to‘liq anglash va ularni badiiy jihatdan qayta yaratishni talab etadi. Tarjima jarayonida faqat leksik birliklarni boshqa tilda ifodalash yetarli bo‘lmay, balki asardagi sirlilik muhiti, mantiqiy ketma-ketlik va psixologik taranglikni ham saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu unsurlar detektiv asarning asosiy tayanchi bo‘lib, ularning yo‘qolishi asarning umumiy ta’sir kuchini pasaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Agatha Christiening asarlarida har bir detal, dialog va yashirin ishora muhim vazifani bajaradi. Shu sababli tarjimada so‘zma-so‘z yondashuvdan ko‘ra, mazmuniy va funksional tarjima usuli samaraliroq natija beradi. Aynan shu yondashuv muallif uslubini, voqealar rivojidadagi keskinlikni hamda o‘quvchida shakllanadigan gumon va hayajon hissini to‘laqonli saqlash imkonini yaratadi. Maqolada tarjimon faoliyati ijodiy jarayon sifatida baholanib, uning muallif g‘oyalarini boshqa madaniy muhitda qayta jonlantirishdagi roli yoritildi. Tarjimon ingliz jamiyatiga xos nutq uslubi, psixologik holatlar va madaniy ishoralarni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli, tabiiy shaklda yetkazishi zarur. Ayniqsa, soxta izlar, yashirin ma’no va ichki monologlarning tarjimasida tarjimonning badiiy didi va tajribasi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Agatha Christie asarlarini o‘zbek tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilish detektiv janr qonuniyatlarini chuqur bilishni, muallif uslubiga sodiqlikni hamda madaniy moslashtirishni talab etadi. Ushbu tadqiqot natijalari badiiy tarjima nazariyasini boyitishga, shuningdek, detektiv janr asarlarini tarjima qilish amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi

---

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Asadov, M. (2023). SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO ‘STMUHAMMAD. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
2. Рашидова Н. Историческо-лингвистическое освещение арабизмов сферы образования в узбекском языке //Востоковедения. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 105-115.
3. Mamarasulova, Gulnoz, and Ilyosbek Safarov. "THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LEARNING IN TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE." Nordic\_Press 8.0008 (2025).
4. Christie, A. (2011). The Body in the Library. HarperCollins Publishers.
5. Salomov, G‘. (1983). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: O‘qituvchi. (Badiiy tarjima va uslub masalalari uchun).
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006-2008). Toshkent: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. (Atamalar va iboralarni to'g'ri qo'llash uchun).
7. Musaev, Q. (2005). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan. (Ingliz-o'zbek tarjimasi xususiyatlari bo'yicha).
8. Tog'ayeva, G. (2021). Detektiv janri va uning o'zbek adabiyotidagi o'rni. (Akademik tadqiqotlar uchun).